

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2020-yil 1-aprel holatiga ko'r'a yuridik shaxs bo'lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) (Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Viloyatimizda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishda mustaxkam qonunchilik va xuquqiy bazani shakllantirishni, yaratilgan turli imtiyozlar va qulay ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy shart-sharoitlar, muxim axamiyat kasb etadi.

Ishbilarmonlik muxiti biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ta'minlash, yuritish uchun viloyatda yaratilgan qonuniy shart-sharoitlar, targ'ibotlar, uni qo'llab quvvatlashni tadbirkorlik faoliyati erkinliklari va kafolatlari majmuasidir.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subektlari faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

2020-yil yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida 1 496 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4,9 mingta (15,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 37,2 mingtani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 37 200 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,6 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 26,6 % savdoda, 3,9 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %

(Dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.04.2020 yil	
	01.04.2019 yil	01.04.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>32 326</b>	<b>37 200</b>	<b>15,0 %</b>	<b>100,0 %</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 630	1 830	12,3 %	4,9 %
Sanoat	6 917	8 043	16,3 %	21,6 %
Qurilish	2 626	3 020	15,0 %	8,1 %
Savdo	7 814	9 879	26,4 %	26,5 %
Tashish va saqlash	1 281	1 459	13,9 %	3,9 %
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 563	1 807	15,6 %	4,9 %
Axborot va aloqa	1 016	1 066	4,9 %	2,9 %
Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	731	844	15,5 %	2,3 %
<b>Boshqa turlari</b>	<b>8 748</b>	<b>9 252</b>	<b>5,8 %</b>	<b>24,9 %</b>

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9 879 ta) savdo, (8 043 ta) sanoat, (3 020 ta) qurilish, (1 830 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1 807 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1 459 ta) tashish va saqlash, (1 066 ta) axborot va aloqa, (8 44 ta) sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9 252 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 36 274 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 376 ta (13,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdo, 21,7 % sanoat, 8,2 % qurilish, 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,8 % boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarnig asosiy qismi Farg'ona shahri (6 467 ta), Qo'qon shahri (4 861 ta), Marg'ilon shahri (3 701 ta), Uchko'prik tumani (1 862 ta) va Dang'ara tumani (1 722 ta), Oltiariq tumani (1 633 ta), O'zbekiston tumani (1 627 ta) hamda Quva (1 576 ta) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil yanvar-mart oylarida 1 496 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 48,9 foizga kamaygan.


### Yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Farg'ona sh. (228 ta), Qo'qon sh. (189 ta), Quvasoy sh. (53 ta), Marg'ilon sh. (146 ta), Oltiariq t. (74 ta), Quva t. (81 ta) va O'zbekiston t. (72 ta), Buvayda t. (59 ta), Dang'ara t. (66 ta), Qo'shtepa t. (37 ta), Bag'dod t. (64 ta), Beshariq t. (49 ta), Uchko'prik t. (79 ta), Rishton t. (67 ta), Toshloq t. (55 ta), Farg'ona t. (70 ta), Furqat t. (37 ta), So'x t. (28 ta) hamda Yozyovon t.da (42 ta) tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan, sanoatda (342 ta), savdoda (620 ta), qurilishda (125 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (83 ta), tashish va saqlashda (45 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (53 ta), axborot va aloqada (38 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta), boshqa turlarda (157 ta) tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 30 454 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 9 980 ta, oilaviy korxonalar 3 806 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 16 003 ta va boshqalar 665 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-aprel holatiga ko'r'a ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 437 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 118 taga yoki 36,9 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'r'a xorijiy kapital ishtirokida 429 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, Farg'ona shahar 143 ta (33,3 %), Qo'qon shahar 59 ta (13,8 %), Marg'ilon shahar 21 ta (4,9 %), Quvasoy shahar 26 ta (6,1 %), Farg'ona tumanida 23 ta (5,4 %), So'x tumani 5 ta (1,2 %), Furqat tumani 5 ta (1,2 %), Qo'shstepta tumani 8 ta (1,9 %), Bag'dod tumani 9 ta (2,1 %), Buvayda tumani 9 ta (2,1 %) va Yozyovon tumani 5 ta (1,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida o'sish sur'ati, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xitoy Xalq  
Respublikasi  
**98**

Rossiya  
Federatsiyasi  
**108**

Janubiy Koreya  
Respublikasi  
**34**

Turkiya  
Respublikasi  
**39**


Qozog'iston  
Respublikasi  
**12**

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 286 tasi qo'shma, 143 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibidagi qo'shma va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>429</b>	<b>100,0 %</b>
Farg'ona shahar	143	33,3 %
Qo'qon shahar	59	13,8 %
Quvasoy shahar	26	6,0 %
Marg'ilon shahar	21	4,9 %
Oltiariq tumani	19	4,4 %
Qo'shtepa tumani	8	1,9 %
Bag'dod tumani	9	2,0 %
Buvayda tumani	9	2,0 %
Beshariq tumani	6	1,4 %
Quva tumani	16	3,7 %
Uchko'prik tumani	12	2,8 %
Rishton tumani	11	2,6 %
So'x tumani	5	1,2 %
Toshloq tumani	14	3,3 %
O'zbekiston tumani	20	4,7 %
Farg'ona tumani	23	5,4 %
Dang'ara tumani	18	4,2 %
Furqat tumani	5	1,2 %
Yozyovon tumani	5	1,2 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 19 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga kamaygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona sh. 6 ta (31,6 %), Qo'qon sh. 3 ta (15,8 %), Quvasoy sh. 4 ta (21,1 %), Dang'ara tumanida 1 ta (5,3 %), Toshloq tumani 1 ta (5,3 %), Uchko'prik tumani 1 ta (5,3 %), Bag'dod tumani 1 ta (5,3 %), Oltiariq tumani 1 ta (5,3 %), Rishton tumani 1 ta (5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2020-yil yanvar-mart oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi 5 ta, Rossiya Federatsiyasi 8 ta, Kanada davlati 1 ta, Qirg'iziston Respublikasi 1 ta, Turkiya Respublikasi 2 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yuritishga qiziqish bildirmoqdalar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, savdoda 3 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligidagi 3 ta, qurilishda 1 ta va boshqa turlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




### Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 31,1 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-aprel holatiga qaraganda 17,9 % ga oshgan.


Ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 574 tasi (18,0 %) Farg'ona, 4 348 tasi (14,0 %) Qo'qon, 3 379 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1 681 tasi (5,4 %) Uchko'prik tumani va 1 515 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 31 005 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 9 843 tasi (31,7 %) savdoda, 7 992 tasi (25,8 %) sanoatda, 3 002 tasi (9,7 %) qurilishda, 1 770 tasi (5,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1 799 tasi (5,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 443 tasi (4,7 %) tashish va saqlashda, 1 064 tasi (3,4 %) axborot va aloqa sohasida, 652 tasi (2,1 %) sog'liqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda va 3 440 tasi (11,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-mart oylarida 1 436 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa 2019-yilning shu davriga nisbatan 1 415 taga kamaygan. Asosiy yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (214 ta), Qo'qon (186 ta), Marg'ilon (143 ta) shaharlarida, Oltiariq (71 ta) va Buvayda (56 ta), So'x (26 ta), Furqat (35 ta) hamda Yozyovon (41 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, savdoda (620 ta), sanoatda (340 ta), qurilishda (125 ta), tashish va saqlashda (45 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (81 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (53 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta) va boshqa turdag'i xizmatlarda (101 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar


2020-yil 1-aprel holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3 924 tani tashkil etgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 703 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 3 924 tani tashkil etib, ulardan 3 806 tasi yoki 96,7 % faoliyat yuritmoqda.

### **Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




### **Faoliyat ko'rsatatyotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,8 % yoki 1 743 tasi sanoat, 13,8 % yoki 527 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,8 % yoki 752 tasi savdo, 7,2 % yoki 274 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 75 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 44 tasi qurilish, 1,1 % yoki 40 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,4 % yoki 318 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, asosiy qismi sanoat, yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo, tashish va saqlash hissasiga to'g'ri keladi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>221</b>	<b>100,0 %</b>
Farg'ona shahar	15	6,8 %
Qo'qon shahar	7	3,2 %
Quvasoy shahar	10	4,5 %
Marg'ilon shahar	12	5,4 %
Oltiariq tumani	13	5,9 %
Qo'shtepa tumani	6	2,7 %
Bag'dod tumani	20	9,0 %
Buvayda tumani	17	7,7 %
Beshariq tumani	14	6,3 %
Quva tumani	11	5,0 %
Uchko'prik tumani	8	3,6 %
Rishton tumani	32	14,5 %
So'x tumani	4	1,8 %
Toshloq tumani	10	4,5 %
O'zbekiston tumani	17	7,7 %
Farg'ona tumani	13	5,9 %
Dang'ara tumani	5	2,3 %
Furqat tumani	5	2,3 %
Yozyovon tumani	2	0,9 %

2020-yilning yanvar-mart oylarida 221 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 253 taga kamaygan. Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahar (15 ta), Marg'ilon shahar (12 ta) va Rishton (32 ta), Farg'ona t. (13 ta), Oltiariq (13 ta), Buvayda (17 ta) hamda Beshariq (14 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, ularning 47,1 % yoki 104 tasi sanoat, 29,3 % yoki 65 tasi savdo, 8,1 % yoki 18 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 4,1 % yoki 9 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,7 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 6,8 % yoki 15 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**FARG'ONA VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI  
STATISTIK REGISTRRLARNI  
YURITISH BO'LIMI**

**TEL: 71 237-87-37**